

## **STANDARTLASHTIRISH - MAHSULOT SIFATINI VA UNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA**

**Mustafayev Aqilbek Pirnazarovich**

Mustaqil izlanuvchi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqola zamonaviy standartlarning mazmun-mohiyatini, uning joriy qilinishi bilan bog'liq jarayonlarni tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, unda mahsulot sifatini oshirishning turli qiyosiy va tizimli omillarining tahlili ham tadqiq qilingan. Sohaga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy qilish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tahlil, metod, baholash, standart, metodologiya, texnologiya, mahsulot, sifat, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, talab.*

### **ABSTRACT**

*This article is aimed at analyzing the content and essence of modern standards, the processes associated with its introduction. It also investigated the analysis of various comparative and systemic factors for improving product quality. Recommendations have been developed on the introduction of new and advanced technologies into the industry.*

**Key words:** *Analysis, method, evaluation, standard, methodology, technology, product, quality, manufacturer, consumer, demand.*

### **KIRISH**

Bugun jahon iqtisodiyoti va undagi savdoning jadal rivojlanishi sharoitida har qanday davlat o'z ichki bozorlarini turli sifatsiz mahsulotlardan, texnika va texnologiyalardan, xizmatlardan himoya qilishi zarurligi kunday ravshan bo'lib bormoqda. Zero, mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-innovatsion, texnologik va sifat jihatdan taraqqiyoti – aynan sifatli ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, jahonning yuqori darajadagi standartlarini o'z milliy iqtisodiyotiga joriy qilish va aholining salomatligi sifatini ta'minlashga har tomonlama bog'liq. Ammo, bu o'ziga xos murakkab texnologik va sifat tadqiqoti jarayonlari bo'lib, bu borada ko'plab laboratoriya tadqiqotlaridan tortib, texnologik va metodologik muammolar yechimini taqazo qiladi. Eng qiyini, har bir mamlakatning o'z standartlari bo'lib, ular tomonidan ishlab chiqilgan va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar va tovarlar boshqa davlatlarning standart me'yorlariga va talablariga har doim ham mos kelavermaydi.

Shu nuqtai-nazardan, standartlashtirish muammosining yechimini permanent hal qilish va uni doimiy takomillashtirish masalalari kun-sayin dolzarblashib boraveradi. **Standartlashtirish** deganda biz avvalo, barcha ishlab chiqaruvchilarga hamda iste'molchilarga bir xilda qo'llaniladigan texnik talablarni ishlab chiqish va joriy etish jarayonini tushunamiz. Sifat ta'minoti bilan bir qatorda, standartlashtirish mahsulotning butun dunyoda ishlab chiqariladigan jihozlar va turdosh texnikalar, mahsulot va tovarlar uchun ham muvofiq va mos kelishini ta'minlashga xizmat qiladi. Misol uchun, O'zbekistonda avtomobilsozlik sanoati uchun ishlab chiqilgan ma'lum bir dasturiy yoki ehtiyot qism dunyodagi boshqa avtomobilsozlik sanoati uchun ham mos kelish qobiliyati bo'lishi bu maqsadga erishishning asosiy omilidir. Bu esa iste'molchilarga ma'lum bir namunadagi standartlarga javob beradigan texnologik ishlanmani uzoqqa bormasdan yoki aynan asosiy ishlab chiqaruvchi kompaniya do'konlari tarmog'iga murojaat qilmasdan sotib ola bilishi va undan foydalana olishiga imkon beradi.

Shuningdek, aynan standartlashtirish umumtanolingan standartlarga mos keladigan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda keng iste'molga qaratilgan, hamda ishlab chiqarish harajatlarini samarali tarzda minimallashtirishga xizmat qiladigan yagona ishlab chiqarish uslubiga amal qilishni yoqlovchi ishlab chiqaruvchilar uchun jiddiy foyda keltirishini alohida qayd etmog'imiz lozim.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Yaratilgan mahsulotlarni standartlashtirish kompaniyalar ishlab chiqarayotgan va o'z mahsulotlari va xizmatlarini dunyo bozorlarida qo'llab-quvvatlash borasidagi umumqabul qilingan mezonlar o'rnatilishiga, ularning muayyan faoliyat turlarini tartibga solgan holda amalga oshirishlariga imkon beradi. Bu yerda aynan standartlashtirish yaratilgan brendning kelishilganligini hamda sotib oluvchilar uchun muayyan kompaniya mahsulotlarini boshqa raqobatdosh kompaniyalar brendlaridan oson farqlashiga imkon bergan holdagi ko'rinishda bo'lishini ta'minlaydi. Standartlashtirish strategiyasini batafsil o'rganish esa o'z brendining taniqli bo'lishi ortishiga, ish samaradorligi ortishiga va ishlab chiqarish harajatlari pasayishiga yordam beradi. Umuman olganda, mahsulotlar va tovarlarni standartlashtirish — iste'molchilar uchun sotib olish imkoniyati mavjud bo'lgan tovarlar gomogenizatsiyasi bo'lib, bir xil turdagi mahsulotlarning turli tumanligini kamaytiradi. Bu jarayon esa xaridorlarga qaror qabul qilishni osonlashtirish bilan birga, jo'yali va asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Mahsulotlar standartlashtirilishi ham iste'molchilar xavfsizligini texnik standartlar yaratish va ishlab chiqaruvchilarning mahsulotni sotish huquqini qo'lga kiritishi uchun aniq ko'rsatmalarga amal qilish hisobiga ta'minlashga qaratilgan

jarayondir. Mahsulotlarni standartlashtirish bozordagi bir xil turdagi barcha tovarlar mos va muvofiq kelishi lozim bo'lgan umumiy amaliyot va standartlarni yaratadi. Bu esa o'z navbatida narxlarning arzonlashuviga, iste'molchi xaridorlar uchun bir-biridan ko'ra takomillashgan, ustun tovarlarning, mahsulotlarning keng spektri yaralishiga va eng asosiysi muayyan bir tovarlar guruhining umumiy tan olingan tasavvurlarga moslashishiga imkon berishini qayd etish joiz. Aynan ushbu holat haqiqatda, xaridorlarning yanglishishlari yoki boshqa resurslar turlari sifatida kvalifikatsiya qilinadigan aniq elementlar markirovkasini ngoto'g'ri anglashlari ehtimolini kamaytiradi. Demak, standartlashtirishning professional darajada to'g'ri qo'llanilishi va qat'iy talablar asosida amaliyotga joriy qilinishi iste'molchilarni ishlab chiqariluvchilardan va ushbu korxonalar xatti-harakatlarining mas'uliyatidan himoyalaniшни kafolatlaydi.

Tovarlar va mahsulotlar standartlashtirilishi o'z navbatida ularning har bir partiyasi soflik darajasini, muvofiqlikligini va sifatini ta'minlaydi. Muayyan bir sifatning barcha elementlari uchun shakllar va talablar yig'indisining yaratilishi ishlab chiqarishni jadallashtiradi, ular ustidan sinov nazoratining yuqori darajasini hamda ushbu aktivlarni boshqarishni ta'minlaydi. Bu holat esa inspektorlar va auditorlarga kompaniyaning mahsulot standartlarga amal qilayotganligini yoki aksini aniqlashga nisbatan oddiy yo'l bilan imkon beradi. Mahsulotlarning standartlashtirish davomiyligi ularni ishlab chiqarish harajatlarning qisqarishi va sifati ortishining samarali metodi sifatida namoyon bo'ladi. Mahsulotlar o'rtasidagi farqlarni minimallashtirgan holda, masalan, ularni o'zaro bir-birlarining o'rini bosa oladigan darajaga olib kelish orqali ishlab chiqarish hajmini va sifatini tezda oshirish, taqsimotni optimallashtirish, xom-ashyoga harajatlarni kamaytirish va mahsulot brendingini kuchaytirish mumkin. Mahsulotni yuqori professional darajada standartlashtirish strategiyalari maqsadli moslashuvga nisbatan ehtiyojni muvozanatlashtirishga va standartlashtirishga bo'lgan harajatlarni iqtisod qilishga imkon beradi.

Odatda mahsulotning standartlashuvi uning ishlab chiqilishi bosqichlariga, sanoatga joriy qilinishi va ishlab chiqarilish tarmog'iga bog'liq. Masalan, standartlashuv o'z mohiyatiga ko'ra, har bir yangi mahsulotning ba'zi tarmoqlar, sektorlarda qo'llaniladigan me'yorlarga mos kelishini ta'minlashni nazarda tutadi. Shuning uchun ham standartlashgan mahsulotlarni ishlab chiqishda quyidagi jarayonlarga amal qiladi:

- ishlab chiqarilishi ko'zda tutilayotgan mahsulotning rejasini yaratish;
- samarali ishlab chiqarish jarayonini va muhitini yaratish;
- Marketing rejasini ishlab chiqish (yaratish);

- amal qilinadigan prinsiplar to'plamini qat'iy o'rnatish va joriy qilish;
- mahsulotning ixtisosligiga qat'iy amal qilinishini ta'minlash va xokazo. Ulardan kelib chiqqan holda, biz quyida mahsulot standartlashuvining ba'zi asosiy qo'llanish sohalarini ko'rib chiqsak:

**Alohida mahsulotlar va tovarlar:** ishlab chiqaruvchilar ularning tarkibiy ingridiyentlaridan tortib, qadoqlashgacha bo'lgan qismlarini, mintaqaviy yoki jahon bozorlariga mo'ljallanganidan tortib, barchasini bir xillikda saqlab qolgan holda, o'zlarining aniq bir mahsulotlarini standartlashlari mumkin.

**Franshiza modellari:** o'zining ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyatlariga, yetkazib berish tarmoqlariga ega bo'lgan, barcha tarmoqlarni va ishlab chiqish siklini nazorat qila oladigan kompaniyalar odatda, mijozlarini doimiy sifatli mahsulot va tajriba bilan ta'minlash uchun o'zlarining bajaraigan operatsiyalarini va mahsulot ishlab chiqariladigan tajribalarini ham standartlashtiradilar.

**Normativga aylangan qoidalar:** Sertifikatsiyani amalga oshiradigan, ruxsat beradigan yoki uning inspeksiyasini ta'minlovchi tashkilotlar, organlar tovarlarning foydalanuvchilar, iste'molchilar uchun xavfsizligini, ularning mahalliy kommunal xizmatlar tomonidan foydalanishlari uchun yaroqliligini ta'minlovchi qoidalarni, talablarni, texnik talablar va shartlarni ishlab chiqishi va umumiy tartibda joriy qilishlari mumkin.

**Bozor standartlari:** ishlab chiqaruvchi yoki importyor firmalar, tashkilotlar o'z mahsulotlarini raqbotchilariga mos tarzda standartlashlari mumkin. bunda ular tomonidan asosiy e'tibor foydalanuvchilarning, shuningdek, iste'molchilarning tovar va mahsulotning texnik jihatlari va sifat ko'rsatkichlaridan to'liq xabardor bo'lishlariga qaratilishi lozim.

## **XULOSA**

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa tarzida aytish mumkinki, ishlab chiqarish jarayoni qachonki, samarador bo'ladi, agar uning pirovard maqsadi mahsulotning bir xilligini saqlay olsa. Shuningdek, samaradorlikni oshirishning shunday elementlari ham mavjudki, bular ichida katta ishlab chiqarish salohiyati va imkoniyati, mehnatning ixtisoslashuvi va ishlab chiqarish siklining, operatsiyalarining zamonaviy axborot, raqamli va avtomatlashgan texnologiyalardan foydalanishi joriy qilingan bo'lsa. Bu esa ishlab chiqarishning va tovarlar sifatining yuqoriligini, uning standartlashuv imkoniyati ortishini, samarador mehnat munosabatlarini, xalqaro va mahalliy bozorlarda jadal realizatsiya jarayonlarini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Murphy, C. N.; Yates, J. (2008). The International Organization for Standardization (ISO) : Global Governance Through Voluntary Consensus. New York: Routledge. ISBN 978-0-415-77429-1.
2. Очиллов Т.А. Исмагуллаева Х.З. «Метрология, стандартлаштириш ва сертификатлаштириш». Тошкент - 2007.
3. Х. Абдуллаев, О. Ш. Хакимов, Б. М. Ахмедов. Проблемы метрологического обеспечения в высших образовательных учреждениях. Вестник ТГТУ. Тошкент, :ТДТУ, 2000 й.
4. Пономарев, С.В. Метрология, стандартизация, сертификация : учебник для вузов / С.В. Пономарев, Г.В. Шишкина, Г.В. Мозгова. – Тамбов: Изд-во ГОУ ВПО ТГТУ, 2010.
5. Боридько С. И., Дементьев Н. В., Тихонов Б. Н. Метрология и электрорадиоизмерения в телекоммуникационных системах. — М.: Горячая линия -Телеком, 2007.